ISSN 2181-3187

# YURAK ISHEMIK KASALLIKLAI

Beshariq Abu Ali Ibn Sino Nomidagi Jamoat

Salomatligi Texnikumi o’qituvchisi

**G`ulomova Shahnoza Odiljon qizi**

**Annotatsiya:** Miokard infarkti — yurak mushaklarining bir qismi qon bilan ta'minlanishining to'satdan to'xtashi natijasida ushbu to'qimalarning o'lishi (nekrozi) holatidi.

**Kalit so’zlar:** Ishemiya, nekroz, akrasianoz.

**Аннотатсия:** Инфаркт миокарда — это состояние, при котором внезапная остановка кровоснабжения части сердечной мышцы приводит к отмиранию (некрозу) этой ткани.

**Annotation:** Myocardial infarction is a condition in which a sudden interruption of blood supply to a part of the heart muscle leads to the death (necrosis) of that tissue.

**Key words:** Ischemia, necrosis, acrosianosis.

**Dolzarbligi. Yurakning ishemik kasalligi** — dolzarbligi bo`yicha o`lim ko`rsatkichi birinchi o`rinda turadigan kasallik hisoblanadi.Yurak-tomir sistemasining keng tarqalgan kasalligi; miokard ishemiyasi va koronar qon aylanishining buzilishi bilan kechadi. Yurakning ishemik kasalligik.ga, asosan, koronar (toj) tomir arteriyalari aterosklerozi natijasida yurak muskullarida qon aylanishining yetishmay qolishi va shu tufayli yurakning qonga yolchimasligi sabab bo‘ladi. Yurakning ishemik kasalligik.ga stenogkardiya (dastlabki, muqim, nomuqim), miokard infarkti, infarktdan keyingi kardioskleroz, aritmik tur va yurak yetishmovchiligi kiradi.

YU.i.k. klinik jihatdan bir xilda kechmay, dam zo‘rayib, dam bosilib turadi. Ko‘pincha Yurakning ishemik kasalligik. zimdan kechib, bemor o‘zining shunday xavfli kasallikka chalinganini bilmay, shifokorga murojaat qilmay yuradi. Odatda,

ISSN 2181-3187

Yurakning ishemik kasalligik.ning dastlabki klinik belgilaridan biri — zo‘riqish stenokardiyasi xuruji bo‘lib, jismoniy ish bajarilganda ro‘y beradi

YU.i.k.ning kelib chiqishi va rivojlanishiga kishilarning yoshi, kasallikka irsiy moyillik, gipertoniya kasalligi, qandli diabet, semirib ketish, ichkilikka ruju qilish, kashandalik, kam harakat (gipodinamiya), jismoniy hamda ruhiy zo‘riqish va boshqalar sabab bo‘ladi. Kashandalar o‘rtasida Yurakning ishemik kasalligik.ning nisbatan ko‘p uchrashi kuzatilgan.




Sabablari:

- Ateroskleroz
- Gipertoniya
- Qandli diabet
- Chekish
- Kam harakatlilik

**Belgilar:**

- Ko'krak sohasida og'riq (angina pektoris)
- Nafas qisishi
- Yurak urishining notekisligi (aritmiya)
- Charchoq va holsizlik
- Ba'zida belgilarsiz kechishi mumkin

Yurakning ishemik kasalligik. ga gumon qilinganda darhol bemorni kasalxonaga yotqizish zarur. Kasallikning klinik belgilari (kasallik tarixi, bemor shikoyatlari, perkussiya, auskultatsiya, umumiy ko‘ruv), elektrokardiografiya, yurak muskullariga xos fermentlar va struktura elementlari (kreatinin fosfokinaza izofermentlari, mioglobin va boshqalar) hamda qon tahlili, exokardiografiya va boshqalar tekshiruv natijalariga qarab diagnoz qo‘yiladi

**Oldini olish:**

- Sog'lom turmush tarzini yuritish
- Doimiy jismoniy faollik
- Sog'lom ovqatlanish
- Chekishdan voz kechish
- Qon bosimi va qand miqdorini nazorat qilish

## Miokard Infarkti

**Ta'rifi:**

Miokard infarkti — yurak mushaklarining bir qismi qon bilan ta'minlanishining to'satdan to'xtashi natijasida ushbu to'qimalarning o'lishi (nekrozi) holatidir.

**Sabablari:**

- Koronar arteriyaning tromb bilan to'silishi
- Aterosklerotik blyashkaning yorilishi
- Koronar arteriyaning spazmi

**Belgilar:**

ISSN 2181-3187

- Ko'krak sohasida kuchli og'riq (bo'yin, yelka, orqa yoki jag'ga tarqalishi mumkin)
- Nafas qisishi
- Ko'ngil aynishi yoki qusish
- Sovuq terlash
- Holsizlik va bosh aylanishi

**Davolash:**

- Tibbiy yordam (dorilar yordamida og'riqni kamaytirish, yurak faoliyatini yaxshilash)
- Trombolitik terapiya (qonni suyultiruvchi dorilar orqali trombni eritish)
- Angioplastika va stent o'rnatish
- Koronar arteriya bypass operatsiyasi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.F.Ziyayeva. «Terapiya ». Toshkent. “Ilm Ziyo”2007

2.A.G.Gadayev,M.Sh.Karimov, X.S.Ahmedov «Ichki kasalliklar prepadevtikasi ». Toshkent “Turon zamin ziyo”, 2004yil.

2.Internet ma’lumotlari.